
BAYRAM TUHFASI: KONIZAR MAHALLASIDA ISHLAB CHIQRISH HAMDA XIZMAT KO'RSATISH MAJMUALARI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Mustaqilligimizning 33 yilligi bayrami arafasida Toshloq tumanida ham tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish va savdo ob'ektlari barpo etilib, mahalla ahliga bayram sovg'asi sifatida foydalanishga topshirilmoqda.

Bugun tumandagi "Konizar" MFYda tadbirkor Furqatjon Ahmedov tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatish punkti, non va non mahsulotlari, shirinliklar ishlab chiqarish ob'ektlari foydalanishga topshirildi. Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar foydalanib, mahallamizda ishlab chiqarish majmualarini qurib aholi uchun xizmat ko'rsatmoqdamiz,-deydi tadbirkor Furqatjon Ahmedov. Mahalla hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 100 mln. so'mlik imtiyozli kredit olib shu faoliyatga asos soldik. Natijada 20 dan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

2024-08-26 16:57:29